

## RAQAMLASHGAN JAMIYAT VA TA'LIMDA SAMARADORLIK: INNOVATSION YONDASHUVLARNING MOHIYATI

**Abdullayeva Ziyoda Nabiyevna**  
**Muhammad al-Xorazmiy**  
**nomidagi Toshkent**  
**Axborot Texnologiyalari**  
**Universiteti, Jismoniy**  
**madaniyat va**  
**Gumanitar fanlar kafedrası,**  
**dotsenti**  
**z.abdullayeva.tatu@gmail.com**

**Annotatsiya:** Zamonaviy ta'lim tizimi globallashev, raqamlashtirish va tezkor ijtimoiy o'zgarishlar sharoitida nafaqat bilim berish, balki shaxsni axloqiy jihatdan kamol toptirish vazifasini ham bajarishi zarur. Ushbu maqolada ta'limda samaradorlik tushunchasi innovatsion yondashuvlar kontekstida falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Xususan, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, masofaviy ta'lim va shaxsga yo'naltirilgan metodlarning ta'lim sifatiga ta'siri yoritiladi. Shu bilan birga, innovatsiyalarni joriy etishda axloqiy tamoyillarning o'rni, pedagog mas'uliyati va ta'lim jarayonida insoniy qadriyatlarning saqlanishi masalalari muhim deb topiladi. Falsafiy yondashuv asosida ta'lim samaradorligi faqat natijaviylik bilan emas, balki tarbiyaviy va axloqiy ta'sir bilan ham baholanishi lozimligi asoslab beriladi. Maqolada innovatsion ta'limning ijobiy jihatlari bilan bir qatorda, axloqiy xavflari va muammolari ham ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari ta'lim siyosatini ishlab chiqishda, pedagogik strategiyalarni takomillashtirishda hamda innovatsiyalarni mas'uliyat bilan joriy etishda nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim samaradorligi, innovatsion yondashuvlar, ta'lim falsafasi, axloq, raqamli ta'lim, pedagogik mas'uliyat, insoniy qadriyatlar, zamonaviy ta'lim, tarbiya, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, axloqiy xavflar.

*Ta'limda samaradorlik* - bu ta'lim jarayonining maqsadga qanchalik tez, sifatli va foydali erishayotganini ko'rsatadigan tushuncha. Ta'limda sarflangan vaqt, kuch va resurslar evaziga o'quvchi qanchalik yaxshi bilim, ko'nikma va tarbiya olayotgani ta'lim samaradorligini bildiradi.

*Ta'limda samaradorlik va axloq* - bu ta'lim jarayonida belgilangan maqsadlarga erishishni ta'minlovchi pedagogik natijalarning sifati hamda ushbu jarayonning adolat, halollik, mas'uliyat va insonparvarlik kabi axloqiy tamoyillarga asoslangan holda tashkil etilishidir [Abdulloyeva, D.A.2025].

*Innovatsion yondashuvlar* - bu ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalar, yangi pedagogik metodlar va ijodiy yechimlardan foydalanish orqali ta'lim sifatini, samaradorligini va o'quvchilarning mustaqil fikrlash hamda amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlar.

*Innovatsion yondashuvlarning falsafiy baholanishi* - bu ta'limda qo'llanilayotgan yangi g'oya, metod va texnologiyalarning mazmuni, maqsadi va natijalarini insonparvarlik, bilish nazariyasi, axloq va ijtimoiy qadrlar nuqtayi nazaridan tahlil qilish jarayonidir [Boymurodova, D.G.2025].

*Ta'limda samaradorlik va axloq: innovatsion yondashuvlarning falsafiy mavzusida olimlarning ishlari quyida keltirilgan:*

Abdulloyeva, D. A., & Pulatov, B. N. Zamonaviy yondashuvlar va ularning ta'lim boshqaruvidagi o'rni va samaradorligi. Pedagogik islohotlar va ularning yechimlari, 14(02). Ushbu maqolada mualliflar ta'lim boshqaruvida raqamli transformatsiya va innovatsion pedagogik metodlarning samaradorligini tahlil qilgan.

Boymurodova, D. G. Boshlang'ich ta'limda innovatsion yondashuvlar va ularning samaradorligi. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi. Maqolada innovatsion pedagogik metodlarning o'quvchilarning mustaqil fikrlash va kreativ ko'nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyati ko'rsatib berilgan.

Burxonov, Sh. Ta'lim samaradorligini oshirishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish. Ilm fan xabarnomasi. Muallif interaktiv o'qitish, gamifikatsiya va onlayn metodlar orqali ta'lim samaradorligini oshirishni tahlil qiladi [Burxonov, 2025].

Karpouzis, K. Artificial Intelligence in Education: Ethical Considerations and Insights from Ancient Greek Philosophy. arXiv. Ushbu maqolada sun'iy intellekt va ta'limda innovatsion texnologiyalarni qo'llashning axloqiy jihatlari qadimiy yunon falsafasi nuqtai nazaridan tahlil qilingan.

Karpouzis, K., & Tzanavaris, A. Ethical Decision Making in Education: Teachers vs AI. MDPI. Mualliflar axloqiy qarorlar qabul qilish jarayonida o'qituvchi va sun'iy intellekt o'rtasidagi farqlarni solishtiradi hamda ta'lim samaradorligi bilan axloqiy me'yorlar integratsiyasini yoritadi.

Pulatova, D. Oliy ta'lim muassasalarida innovatsion menejment strategiyalarining samaradorligini oshirish yo'llari. Green Economy and Development. Maqolada innovatsion boshqaruv strategiyalari va ularning ta'lim samaradorligiga ta'siri o'rganilgan.

Selwyn, V. Education and Technology: Ethical Perspectives on Innovation. Routledge. Muallif ta'limdagi texnologik innovatsiyalar va ularning axloqiy hamda ijtimoiy ta'sirini falsafiy nuqtai nazardan baholaydi.

Valiyeva, S. A. The use of innovative pedagogical methods in improving the quality of education and ensuring their effectiveness. International Journal of Artificial Intelligence. Maqolada talabaga yo'naltirilgan metodlar va raqamli texnologiyalar yordamida ta'lim sifatini oshirish masalalari yoritilgan.

Yan, L., et al. Practical and Ethical Challenges of Large Language Models in Education. arXiv. Maqolada katta til modellari (LLM)ning ta'lim jarayonida qo'llanilishi bilan bog'liq amaliy va axloqiy muammolar tahlil qilingan.

Zhao, L., & Chen, M. The axiological foundations of innovation in STEM education - A systematic review and ethical meta-analysis. ScienceDirect. Ushbu maqolada STEM ta'limida innovatsiyalarni axloqiy va qadriy yondashuvlar asosida amalga oshirish metodologiyasi o'rganilgan [Zhao, 2024].

Ta'limda samaradorlik va axloqni oshirishda innovatsion yondashuvlarning  
amaliyoti va falsafiy baholashni tahlili

<b>№</b>	<b>Amaliy tadbir / yo'nalish</b>	<b>Samaradorlikka ta'siri</b>	<b>Axloqiy / falsafiy jihat</b>
1	<b>Interaktiv darslar (discussion, debate)</b>	O'quvchilarning bilim va tahlil ko'nikmalari oshadi	Hurmat, eshitish va konstruktiv fikr almashish qadriyati
2	<b>Projekt asosida o'qitish</b>	Muammolarni hal qilish va ijodiy yondashuv rivojlanadi	Mas'uliyat, jamoaviy ishlash va axloqiy qaror qabul qilish
3	<b>Gamifikatsiya</b>	Darslarga qiziqish va motivatsiya oshadi	O'quvchilar o'rtasida teng imkoniyat va adolatni rivojlantiradi
4	<b>Blended learning (onlayn + oflayn)</b>	O'qitish samaradorligi oshadi, vaqt va resurslarni tejaydi	Texnologiya larni etik qo'llash va mas'uliyatni oshiradi
5	<b>Akademik halollikni rag'batlantirish</b>	Ko'chirmachilik va soxta ishlardan saqlanish	Axloqiy me'yorlar va shaffoflikni mustahkamlaydi
6	<b>Individualizatsiya / shaxsiy yondashuv</b>	Har bir o'quvchi o'z qobiliyatiga mos bilim oladi	Adolat, hurmat va insonparvarlik qadriyatlari
7	<b>Doimiy monitoring va baholash</b>	Innovatsion metodlarning natijadorligi o'lchanadi	O'quvchi bilim va axloqiy fazilatlari bir vaqtda baholanadi
8	<b>Feedback va refleksiya</b>	O'quvchi o'z natijasini tahlil qilib yaxshilaydi	Mas'uliyat, halollik va o'zini baholash madaniyati
9	<b>Raqamli texnologiyalarni joriy etish</b>	O'qitish samaradorligi va resursdan foydalanish optimallasadi	Texnologiya larni etik va mas'uliyatli qo'llash

10	<b>Axloqiy va madaniy qadriyatlarni integratsiya qilish</b>	Ta'lim jarayoni insonparvarlik va ma'naviy qadriyatlarga asoslanadi	Ta'lim jarayonining falsafiy va axloqiy asoslari mustahkamlanadi
----	---	---	--

Ushbu 1-jadvalda ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik metodlar va texnologiyalarni qo'llash orqali samaradorlikni oshirish va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish yo'llarini ko'rsatadi. Jadvalda har bir yo'nalish uchun amaliy tadbir, uning ta'lim samaradorligiga ta'siri hamda axloqiy/falsafiy jihati qisqacha ifodalangan. Shu orqali o'qituvchi yoki tadqiqotchi ta'lim jarayonini ilmiy asosda rejalashtirish va baholash imkoniga ega bo'ladi [Yan, 2023].

Ta'limda samaradorlik va axloqni baholashda xalqaro va milliy baholash tizimlari keng qo'llaniladi. Xalqaro miqyosda OECD davlatlari (Fransiya, Germaniya, Kanada va boshqalar) PISA, TIMSS va PIRLS kabi indikatorlar orqali o'quvchilarning bilim, ko'nikma va tanqidiy fikrlash darajasini o'lchaydi [Pulatova, 2025].

Milliy darajada esa O'zbekiston Respublikasi ta'lim samaradorligini davlat standartlari, pedagoglarning malakasi, ta'lim jarayoni sifat ko'rsatkichlari va kasbiy ta'lim muassasalari uchun akkreditatsiya indikatorlari asosida baholaydi [Valiyeva, 2025]. Shu tarzda, baholash jarayoni innovatsion yondashuvlarning samaradorligini va axloqiy qadriyatlarga mosligini ilmiy asosda aniqlash imkonini beradi.

### **Xulosa**

Ta'limda samaradorlik va axloqni rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar zamonaviy pedagogik jarayonning ajralmas qismiga aylangan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, interaktiv metodlar, projekt asosidagi o'qitish, gamifikatsiya, blended learning va raqamli texnologiyalar ta'lim samaradorligini oshirish bilan birga, o'quvchilarning axloqiy, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishini ham ta'minlaydi. Innovatsion yondashuvlarning falsafiy bahosi shuni ko'rsatadiki, samaradorlik faqat bilim natijalariga emas, balki o'quvchining tarbiyaviy va axloqiy kamolotiga bog'liq.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Abdulloyeva, D. A., & Pulatov, B. N. (2025), 14(02), 18-21 bet. "Zamonaviy yondashuvlar va ularning ta'lim boshqaruvidagi o'rni va samaradorligi. Pedagogik islohotlar va ularning yechimlari".
2. Boymurodova, D. G. (2025), 38(2), 192-197 bet. "Boshlang'ich ta'limda innovatsion yondashuvlar va ularning samaradorligi". Ta'lim Innovatsiyasi va Integratsiyasi.
3. Burxonov, Sh. (2025), 22-26 bet. "Ta'lim samaradorligini oshirishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish". Ilm fan xabarnomasi.
4. Karpouzis, K., & Tzanavaris, A. (2024), 156-162 peg. "Ethical decision making in education": Teachers vs AI. MDPI.

5. Nabiyeva, A. Z. Patriotic Ideas in the Formation of Personality: Education and Environment.
6. Pulatova, D. (2025), 864-871 bet. "Oliy ta'lim muassasalarida innovatsion menejment strategiyalarining samaradorligini oshirish yo'llari".
7. Selwyn, V. (2025), 566-603 peg. "Education and technology: Ethical perspectives on innovation. Routledge".
8. Valiyeva, S. A. (2025), 402-407 peg. "The use of innovative pedagogical methods in improving the quality of education and ensuring their effectiveness". International Journal of Artificial Intelligence.
9. Zhao, L., & Chen, M. (2024), 204-208 peg. "The axiological foundations of innovation in STEM education - A systematic review and ethical meta-analysis".
10. Абдуллаева, З. (2025). РАКАМЛИ ДЖАМИЯТДА АХЛОКИЙ ИШОНЧНИ АВТОМАТИК БАХОЛАШ ТИЗИМИ. *Ижтимоий-гуманитарный фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, 5(10s), 219-225.
11. Абдуллаева, З. Н. (2021). ВЗАИМНАЯ ГАРМОНИЯ ПРОШЛОГО И НАСТОЯЩЕГО В УПРАВЛЕНИИ СООБЩЕСТВОМ (НА ОСНОВЕ СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИХ ВЗГЛЯДОВ АБУ НАСРА ФОРАБИ). *Академические исследования в области образовательных наук*, 2(2), 1076-1080.
12. Абдуллаева, З. Н. (2024). JAMIYAT BARQARORLIGIDA ISHONCHNING QADRIYAT SIFATIDA YUKSAK VAHOLANISHI: YOSHLAR TARBIYASIDAGI AXLOQIY MEZONLAR. *Академические исследования в области образовательных наук*, 5 (Конференция TSUE 1), 457-461.
13. Набиевна, А. З. (2025). Молодёжь и сегодня: трансформация доверия и морали в процессе воспитания. *Испанский журнал инноваций и честности*, 41, 414-415.